



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 5

2026

ILK O'RTA ASRLARDA XORAZM VOHASIDA YUZ BERGAN IJTIMOYIY-SIYOSIY VA ETNOMADANIY JARAYONLARNING ARXEOLGIK MATERIALLARDA AKS ETISHI

Azatov Allayar Erkinbaevich

Milliy antropologiya instituti, doktorant

Annotatsiya

Mazkur maqolada ilk o'rta asrlarda, xususan V–VIII asrlarda Xorazm vohasida yuz bergan ijtimoiy-siyosiy hamda etnomadaniy jarayonlarning arxeologik materiallarda aks etishi tahlil qilinadi. Tadqiqotda Eftaliylar va Turk xoqonligi davrida Xorazm hududida kuzatilgan madaniy o'zgarishlar, siyosiy aloqalar hamda ularning moddiy madaniyat namunalari ifodalanishi ko'rib chiqiladi. Xususan, tangalar, harbiy qurollar, tasviriy san'at namunalari, diniy-mifologik tasvirlar hamda motam marosimlari bilan bog'liq topilmalar asosida turkiy va mahalliy an'analarning o'zaro ta'siri yoritiladi. Shuningdek, To'q-qal'a ostodoni, Panjikent devoriy rasmlari, Anikovo idishi hamda Turk xoqonligi va Xorazm tangalari misolida mintaqadagi madaniy sintez jarayonlari tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, Xorazm vohasi ilk o'rta asrlarda turli siyosiy kuchlar ta'sirida bo'lsa-da, o'ziga xos mahalliy madaniy an'analarni saqlab qolgan holda turkiy etnomadaniy elementlar bilan uyg'unlashgan murakkab madaniy muhitni shakllantirgani aniqlanadi

Kalit so'zlar: Xorazm vohasi, ilk o'rta asrlar, Turk xoqonligi, Eftaliylar, arxeologik topilmalar, tangalar, etnomadaniy jarayonlar, motam marosimlari, Umay va Anaxita tasvirlari, Afrig'iyalar sulolasi.

ОТРАЖЕНИЕ СОЦИАЛЬНО-ПОЛИТИЧЕСКИХ И ЭТНОКУЛЬТУРНЫХ ПРОЦЕССОВ, ПРОИСХОДИВШИХ В ХОРЕЗМСКОМ ОАЗИСЕ В РАННЕМ СРЕДНЕВЕКОВЬЕ, В АРХЕОЛОГИЧЕСКИХ МАТЕРИАЛАХ

Азатов Аллаяр Эркинбаевич

Национальный институт антропологии, докторант

Аннотация

В данной статье анализируется отражение социально-политических и этнокультурных процессов, происходивших в Хорезмском оазисе в раннем средневековье, в частности в V–VIII веках, на основе археологических материалов. В исследовании рассматриваются культурные изменения, политические связи и их проявление в памятниках материальной культуры Хорезма в период Эфталитов и Тюркского каганата. В частности, на основе нумизматических данных, образцов вооружения, произведений изобразительного искусства, религиозно-мифологических изображений, а также находок, связанных с погребально-поминальными обрядами, освещается взаимодействие тюркских и местных традиций. Кроме того, анализируются процессы культурного синтеза в регионе на примере остодона Ток-кала, настенных росписей Пенджикента, сосуда из Аникова, а также монет Тюркского каганата и Хорезма. По результатам исследования установлено, что, несмотря на влияние различных политических сил в раннем средневековье, Хорезмский оазис сформировал сложную культурную среду, в которой местные традиции сохранялись и гармонично сочетались с тюркскими этнокультурными элементами.

Ключевые слова: Хорезмский оазис, раннее средневековье, Тюркский каганат, Эфталиты, археологические находки, монеты, этнокультурные процессы, погребальные обряды, образы Умай и Анахиты, династия Афригидов.

THE REFLECTION OF SOCIO-POLITICAL AND ETHNOCULTURAL PROCESSES IN ARCHAEOLOGICAL MATERIALS OF THE KHOREZM OASIS DURING THE EARLY MIDDLE AGES

Azatov Allayar Erkinbaevich

National Institute of Anthropology, Doctoral student

Abstract

This article analyzes the reflection of socio-political and ethnocultural processes that took place in the Khorezm oasis during the Early Middle Ages, particularly in the 5th–8th centuries, based on archaeological materials. The study examines cultural transformations, political interactions, and their representation in the material culture of Khorezm during the periods of the Hephthalites and the Turkic

Khaganate. In particular, the interaction between Turkic and local traditions is elucidated through the analysis of numismatic evidence, weapons, works of visual art, religious and mythological imagery, as well as findings related to funerary and commemorative practices. Furthermore, processes of cultural synthesis in the region are explored through examples such as the Tok-kala ossuary, the wall paintings of Panjikent, the Anikovo vessel, and the coins of the Turkic Khaganate and Khorezm. The results of the study demonstrate that, despite the influence of various political forces in the Early Middle Ages, the Khorezm oasis developed a complex cultural environment in which local traditions were preserved while harmoniously integrating with Turkic ethnocultural elements.

Keywords: Khorezm oasis, Early Middle Ages, Turkic Khaganate, Hephthalites, archaeological findings, coins, ethnocultural processes, funerary practices, images of Umay and Anahita, Afrighid dynasty.

Ilk oʻrta asrlarda, xususan, V–VIII asrlarda Oʻrta Osiyoning deyarli barcha hududlarida boʻlganidek, Xorazm vohasida ham jadal siyosiy voqealilar yuz bergan boʻlib, bu holat voha hududidan topilayotgan koʻplab arxeologik topilmalarda oʻz aksini topgan. Bu davrda mintaqada, asosan, Eftaliylar va Turk xoqonligi qoʻl ostidagi voha hukmdorliklari — mulkiklar boshqaruvi mavjud boʻlgani bilinadi. Eftaliylar saltanatining Oʻrta Osiyodagi hokimiyati aynan qaysi hududlarda oʻrnatilganining toʻlaqonli aniqlanmagani, shuningdek, ushbu saltanat boshqaruvi nisbatan kam davom etgani bois V–VI asrlarga tegishli moddiy madaniyat yodgorliklarining oʻziga xos xususiyatlari borasida aniq tasavvurlarga ega boʻlish birmuncha qiyin. Biroq Turk xoqonligi davri moddiy madaniyatining oʻziga xos xususiyatlari toʻgʻrisida muayyan tasavvurlarga egamiz. Sababi, Eftaliylardan farqli oʻlaroq, Turk xoqonligining oʻz vassallari ustidan oʻrnatilgan hokimiyatining mohiyati qanday boʻlgani, xoqonlikka xos moddiy va maʼnaviy madaniyat aynan qanday boʻlganini koʻrsatuvchi maʼlumotlarning koʻlami ancha keng.

Shuning uchun ilk oʻrta asrlarda Xorazm vohasi moddiy va maʼnaviy madaniyati haqida soʻz yuritilar ekan, bu masalada Eftaliylar va Turk xoqonligi davriga xos koʻrsatkichlarning vohadan topilayotgan arxeologik topilmalarda qanchalik aks etganini aniqlashda bir qator omillarga murojaat qilishga toʻgʻri keladi. Yuqorida aytib oʻtilganidek, Eftaliylar saltanatining oʻz vassallarini aynan qanday boshqargani va bu saltanatga xos madaniyatga aloqador topilmalar boʻyicha izlanishlar olib borilar ekan, muayyan muammolarga duch kelinadi. Ayniqsa, bu holat Eftaliylar va Xorazm vohasi misolida yaqqol oʻz ifodasini topadi. Yaʼni Xorazmda Eftaliylar bilan bogʻliq arxeologik topilmalar bormi, bor boʻlsa, ular qanday xususiyatlari bilan alohida ajralib turadi, mazmunidagi savollarga javob berish birmuncha qiyin. Biroq Xorazm va Turk xoqonligi oʻzaro aloqalari, xoqonlik davriga xos arxeologik topilmalar borasida birmuncha aniqroq fikrlar yuritish mumkin.

Shu oʻrinda aytib oʻtish kerakki, Turk xoqonligi davrida Xorazm vohasida yuz bergan ijtimoiy-siyosiy va etnomadaniy jarayonlar hamda ularning arxeologik materiallarda aks etishi haqida soʻz yuritilganda quyidagi jihatlariga eʼtibor berish kerak boʻladi: 1) Turk xoqonligi madaniyati bilan toʻgʻridan-toʻgʻri bogʻliq boʻlgan moddiy buyumlar; 2) Turk xoqonligi davriga aloqador moddiy yodgorliklar. Ulardan birinchisi xoqonlik madaniyatiga toʻgʻridan-toʻgʻri aloqador boʻlsa, ikkinchisi xoqonlikning oʻziga emas, koʻproq uning qoʻl ostidagi vassal hukmdorlik madaniyatiga tegishlidir.

Avvalo, Turk xoqonligi madaniyatiga aloqador moddiy yodgorliklarning oʻziga xos tomonlariga qisqacha toʻxtalib oʻtsak. Ular quyidagicha: 1) xoqonlarning oti, unvoni va qadimgi turk hokimiyat ramzlari — tangʻa, belgi, hukmdor tasviri va h.k. oʻrin olgan tangalar; 2) qadimgi turk tasviriy sanʼatiga xos topilmalar — balbal (tosh haykal), terrakota (sopol haykalcha), muhr va b.lar; 3) Turk xoqonligi davri harbiy sanʼatiga aloqador oʻq-yoylar, qilich va xanjarlar; 4) xoqonlikning boshqaruvchi toifasi bilan bogʻliq qabrlar — ot va ot anjomlari bilan koʻmilgan aslzodalar qabrlari, qadimgi turklarga xos buyumlar (sopol va metall idishlar), kamar taqinchoqlari, bezaklar; 5) qadimgi turklarga xos kiyim-kechaklar; 6) devoriy rasmlar; 7) qadimgi turk-run yozuvidagi bitiklar; 8) qadimgi turk mifologiyasini oʻzida aks ettirgan sopol, metall va suyakdan yasalgan buyumlar va h.k.

Turk xoqonligi madaniyatini oʻzida aks ettiruvchi ushbu moddiy madaniyat ashyolarining koʻpchilik qismi Oʻrta Osiyoning Yettisuv, Fargʻona vodiysi, Choch va Sugʻd vohalarida nisbatan koʻp uchrab, Tohariston va Buxoro vohalarida birmuncha kamroq, Xorazm vohasida esa ancha kam uchrashi diqqatga sazovordir. Aslida, bu qarashimiz ham unchalik toʻgʻri boʻlmay, xoqonlik bilan bogʻliq moddiy buyumlarning ayrim hududlarda nisbatan koʻproq, ayrim hududlarda aksincha ekanligi qaysidir hududda koʻproq arxeologik izlanishlar olib borilgani, qaysi hududda esa buning teskarisi ekani bilan izohlanadi. Turk xoqonligi madaniyati bilan bogʻliq topilmalar koʻlaminin Toshkent va Fargʻona vodiysida nisbatan

ko'pligi bu yerlarda xoqonlik davriga oid yodgorliklarning ko'proq qazib o'rganilgani bilan bog'liq bo'lishi ham mumkin. Boshqa tomondan esa har ikkala hududda Turk xoqonligi moddiy madaniyatiga oid topilmalarning ko'p uchrashi ushbu hududlarning xoqonlikning boshqaruv markazlari bo'lmish Suyab va Tarozga nisbatan yaqin joylashganligi va bu yerlar boshqaruvida to'g'ridan-to'g'ri turkiy sulolalar hokimiyati o'rnatilganiga ham bog'liqdir. Shu o'rinda aytib o'tish kerakki, faqat keyingi yillarda qadimgi Ustrushona hududida joylashgan Jizzax viloyati va Sug'd o'rnidagi Samarqand viloyatlarida ham xoqonlik davri bilan bog'liq bir qator moddiy topilmalar aniqlangan bo'lib, bu holat ushbu hududlardagi arxeologik izlanishlarning salmog'i ortgani bilan izohlanishi mumkin.

Xorazm vohasidan topilgan va topilayotgan arxeologik materiallarni ham ikki guruhga ajratish mumkin: 1) xoqonlikka to'g'ridan-to'g'ri aloqador topilmalar; 2) xoqonlik davriga oid topilmalar. Avvalo, shuni aytib o'tish kerakki, Toshkent, Farg'ona va Samarqand viloyatlaridan farqli holda Xorazm vohasida Turk xoqonligi moddiy madaniyatiga xos topilmalar orasida tanga-pullar va qadimgi turkiy bitiklar uchramaydi. Buning o'ziga xos sabablari bor: birinchidan, ushbu vohada xoqonlik davriga oid yodgorliklar to'laqonli o'rganilgan emas; ikkinchidan esa xoqonlikning bu yerdagi boshqaruvi Choch, Farg'ona va Sug'ddagidan farqli bo'lib, bevosita emas, ko'proq bilvosita xarakterdadir.

Shu bilan birga, Xorazm vohasida Turk xoqonligi davri moddiy madaniyatiga aloqador bir qator topilmalar aniqlanganini aytib o'tish kerak. Ular orasida To'q-qal'a ossuariysi alohida ajralib turadi. Sopoldan yasalgan va motam marosimi aks ettirilgan To'q-qal'a topilmasida chalqancha yotqizilgan marhum tevaragida bir guruh kishilarning yuzlarini pichoq bilan tirnab, qonatib, sochlarini yulib, aza tutayotganligi tasvirlangan bo'lib, xuddi shunga o'xshash sahna bir qator arxeologik topilmalarda ham uchraydi. Masalan, VII–VIII asrlarda chizilgan Panjikent saroy devoriy rasmlarida chalqancha yotgan marhum va uning atrofida pichoq bilan yuzini tirnayotgan, sochlarini yulib, aza tutayotgan kishilar tasvirlari uchrab, bir qator tadqiqotchilar ushbu tasvirlarni qadimgi turklarga xos motam marosimi bilan taqqoslaydilar. Tashqi ko'rinishidan qadimgi turklarni eslatadigan Panjikent devoriy rasmlaridagi ushbu marosimda ishtirok etgan kishilarning birmuncha qisq ko'zli, soqolsiz, dumaloq yuzli va uzun sochli ekani ko'zga tashlanadi. Qadimgi turk motam marosimiga xos ushbu an'anaga doir ma'lumotlar qadimgi turk bitiktoshlari, xitoy va arab manbalarida uchrab, ularda turkiylarning biror kishi vafot etganida marhumning yaqinlari yuzini tirnab, sochini yulib, yig'i-sig'i qilishlari haqida aytib o'tiladi. Ayniqsa, VIII asrning 30-yillariga tegishli Kul Tegin bitiktoshida shahzoda vafot etgan pallada "xalqning yuzini kesib, sochini yulib, ko'z yosh to'kkanliklari"ga urg'u beriladi.





1-rasm. To‘q-qal‘a ossuariysi 2-rasm. Panjikent devoriy rasmlari

Demak, ko‘mish marosimlarida zardushtiylik e‘tiqodiga amal qilgan qadimgi xorazmliklarga xos an‘ana emas, balki qadimgi turklar bilan bog‘liq an‘analar aks etgan To‘q-qal‘a topilmasi xoqonlikka xos urf-odatlarining Xorazm vohasida ham yoyilganidan darak beradi.

Turk xoqonligi davrida Xorazm vohasi moddiy madaniyatini aks ettiruvchi topilmalarning bir qismini harbiy san‘at va u bilan bog‘liq sahnalar aks etgan buyumlar tashkil etadi. S. P. Tolstov Ural daryosi havzalaridan topilgan ilk o‘rta asrlar Xorazm vohasiga tegishli kumush idishlar sirtida o‘rin olgan jangchilar tasvirida Xorazm, Sug‘d, Oltoy, Sharqiy Turkiston, Minusinsk havzasi topilmalaridagi umumiy o‘xshashlikka e‘tibor qaratib, VII–VIII asrlarga oid ushbu topilmalarda qadimgi turklarga xos elementlar uchrashiga to‘xtalib o‘tadi.



3-rasm. Anikovo idishi [1]

Tadqiqotchiga ko‘ra, jangchilarning bosh kiyimi — dubulg‘a, o‘qdon — sadoqlari, qilich va boshqa jang qurollarining ko‘rinishi qadimgi turk qurol-yarog‘larini eslatib, Sosoniylar Eroni askarlarinikidan butunlay ajralib turadi [1; 86]. Unga ko‘ra, ayniqsa, o‘q-yoy solingan sadoqlarning shakli Sharqiy Turkiston va Sug‘d devoriy rasmlarida tasvirlangan sadoqlarga o‘xshashi bilan birga, ularda qadimgi turklarga xoslik ko‘zga tashlanadi [2; 216–218].

Turk xoqonligi davri moddiy madaniyatini o‘zida aks ettirgan topilmalar orasida Toshkent vohasidan topilayotgan G‘arbiy Turk xoqonligiga tegishli tangalar alohida ajralib turib, ushbu tangalardagi tasvirlarning ayrim jihatlari Xorazmshoh Afrig‘iylar sulolasi tangalaridagi tasvirlar bilan yaqin ekani ko‘zga tashlanadi. Qizig‘i shundaki, bu davrda O‘rta Osiyoda zarb qilingan tangalar orasida faqat Choch

va Xorazm tangalarida otliq tasviri o‘rin olgan bo‘lib, bir-biridan ancha uzoq joylashgan har ikkala hukmdorlik tangalarida bunday o‘xshash tasvirlarning uchrashi diqqatga sazovordir. Choch tangalari G‘arbiy Turk xoqonlari tomonidan zarb qildirilgan va ularda qadimgi turk davlatchiligiga xos hokimiyat ramzlari o‘rin olgan bo‘lsa, Afrig‘iylar tangalarida qadimgi Xorazmga xos an‘analar yetakchilik qiladi. Ushbu tangalardagi otliq tasvirining ko‘pchilik detallari o‘zaro bir-biriga o‘xshash berilgani ko‘zga tashlanadi. Bundan tashqari, bu davrda xoqonlik qo‘l ostidagi Choch, O‘tror, Isfijob (Sayram), Farg‘ona, Ustrushona, Sug‘d, Buxoro va Toxariston kabi vassal hukmdorliklar ichida faqat Xorazm tangalarida bunday syujetlarning uchrashi o‘z izohini talab qiladi.



4-rasm. G‘arbiy Turk xoqonligi tangasi (Choch) 5-rasm. Xorazm tangasi

G‘arbiy Turk xoqonligi va Xorazmshoh Afrig‘iylar tangalaridagi yana bir yaqinlik tangalarning ayrim turlarida o‘rin olgan tamg‘alar orasida birmuncha o‘xshashlik borligida ko‘zga tashlanadi. Qizig‘i shundaki, G‘arbiy Turk xoqonligining Chochda bostirilgan tangalarining deyarli barcha turlarida muayyan ko‘rinishdagi tamg‘alar o‘rin olgan bo‘lsa, Xorazm tangalarining ko‘pchiligida boshqa ko‘rinishdagi tamg‘a, faqat Askajvor Chag‘on tangalarida esa xoqonlik tamg‘alariga yaqin ko‘rinishdagi tamg‘a uchraydi.



6-rasm. G‘arbiy Turk xoqonligi tangasi (Choch) 7-rasm. Xorazm tangasi

Xorazmshoh Afrig‘iylar sulolasi vakillaridan biri Chag‘on yoki Askajvor Chag‘onning tangalarida bunday tamg‘aning o‘rin olishi va uning xoqonlik tamg‘alariga o‘xshash jihatlarga egaligi o‘z izohini talab qiladi. Ma‘lumki, islomdan oldingi davrlarda O‘rta Osiyo tangalarining ko‘pchiligida uchraydigan tamg‘a biror sulola yoki hukmdorlikka tegishli ramziy belgi bo‘lib, sulola almashinuvi chog‘ida hokimiyatni egallagan xonadon mansub bo‘lgan urug‘ tamg‘asi tangalarda o‘rin olishi odati mavjud bo‘lgan. Ya‘ni tamg‘alar ko‘pincha biror hukmdor sulolaning o‘rnini egallagan boshqa bir sulolaning etnik kelib chiqishi bilan bog‘liq bo‘lgan. Xorazmshoh Afrig‘iylar tangalarining bitta turida an‘anaviy tamg‘adan farqli tamg‘aning o‘rin olishini ham shu kabi omillar bilan izohlash mumkin. VIII asrning ilk choragida hukm surgan deb qaraladigan Askajvor Chag‘onning asli Toharistonlik, ehtimol, Chag‘oniyon hukmdorligi boshqaruvchi xonadonidan bo‘lib, bir muddat Xorazmga kelib, bu yerdagi hokimiyatni egallab olgan deb qaraladi. Shu tariqa u Xorazmshoh Afrig‘iylar tangasiga o‘z oti va unvonini qo‘yish bilan birga, o‘z tamg‘asini tushirish orqali sulolaviy o‘zgarish bo‘lganiga ishora qilgan ko‘rinadi. Biroq uning hokimiyati uzoq davom etmagani undan keyin zarb qildirilgan Afrig‘iylar tangalarida an‘anaviy tamg‘alar o‘rin olgani asosida o‘z tasdig‘iga ega.

Turk xoqonligi va Xorazm hukmdorligi moddiy hamda ma‘naviy madaniyatiga aloqador yana bir qator topilmalar ham ko‘zga tashlanadi. Ular orasida qadimgi turk e‘tiqodiga xos iloha Umay hamda qadimgi Xorazm va sharqiy eroniy aholisiga xos iloha Anaxita bilan bog‘liq tasvirlar alohida ajralib turadi. Qadimgi turk bitiktoshlarida “Umay” Tangridan insonlarga qut-baraka ulashuvchi g‘ayritabiiy borliq sifatida talqin qilingan bo‘lib, uning vazifasi homiladorlikni qo‘riqlovchi, bolalar va jangchilarga homiylik qiluvchi, hukmdorga “qut” (hokimiyat, xarizma)ni keltirib beruvchi kuch sifatida tushunilgan. Umay tasviriy san‘atda uch qirrali qalpoq kiygan holatda ko‘rsatilib, bunday tasvirlar Choch, Sug‘d va

Toharistonda bostirilgan Turk xoqonligi davriga oid tangalarda, Yettisuv, Sharqiy Turkiston, Oltoy, O'rxun vodiysi (Mo'g'uliston) va Janubiy Sibirdan topilgan qadimgi turk balballari, qoya tasvirlari, suyak va sopol buyumlar sirtida uchraydi. Negizi Old Osiyo xalqlariga borib tutashib, Eron va O'rta Osiyoning ko'plab o'troq vohalarida hosildorlik, qut-baraka keltiruvchi va hokimiyat homiysi sifatida bilingan Anaxita esa islomdan oldingi Amudaryo–Sirdaryo oralig'i o'troq hukmdorliklari, xususan, Sug'd va Xorazm tasviriy san'ati namunalarida o'rin olgan.



8-rasm. O'rta Osiyodan topilgan Umay tasvirli topilmalar: tosh haykallar va tanga (Choch/Toshkent), Umay tasvirli terrakota [3; 217]



9-rasm. O'rta Osiyo voha hukmdorliklari: Sug'd va Xorazm tasviriy san'ati namunalari

Xulosa qilib aytganda, V–VIII asrlarda Xorazm vohasida kechgan ijtimoiy-siyosiy va etnomadaniy jarayonlar arxeologik topilmalarda turli yo'nalishlarda namoyon bo'ladi. Eftaliylar davridagi madaniy izlarni aniqlash murakkab bo'lsa-da, Turk xoqonligi davri moddiy madaniyati Xorazm hududida ham ma'lum darajada o'z aksini topgan. Xususan, motam marosimlari, harbiy an'analar, tangashunoslik, mifologik va ilohiy tasvirlar, shuningdek, turkiy qabr urf-odatlar mahalliy madaniy muhit bilan uyg'unlashib, sinkretik madaniy manzarani yaratgan.

Bu jarayonlar Xorazmning ilk o'rta asrlarda Turk xoqonligi bilan siyosiy-iqtisodiy va madaniy aloqada bo'lganini, shu bilan birga, mahalliy madaniy an'analarni ham saqlab qolganini ko'rsatadi. Arxeologik ma'lumotlar asosida aytish mumkinki, Xorazm vohasi mintaqaning muhim sivilizatsion markazlaridan biri sifatida turli etnomadaniy ta'sirlarni qabul qilgan va ularni o'ziga xos tarzda qayta shakllantirgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Толстов С. П. Древний Хорезм. – М., 1948. – Табл. 86.
2. Толстов С. П. Древний Хорезм: опыт историко-археологического исследования. – М.: Изд-во МГУ, 1948. – С. 216–218.
3. Рапопорт Ю. А. Из истории религии древнего Хорезма (оссуарии). – М., 1971. – 132 с. – (Тр. Хорезмской археолого-этнографической экспедиции; т. VII). – С. 103.